

## **SHIRINMIYA O‘SIMLIGI POPULYATSIYASINING MORFO-EKOLOGIK XUSUSIYATLARI VA XALQ XO‘JALIGIDAGI AHAMIYATI**

**Yuldasheva Nasiba Abdunazarovna**

Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti,

Tabiiy fanlar fakulteti Biologiya kafedrası o‘qituvchisi

### **KIRISH**

Gammerman A.F (1957) shirinmiya o‘simligini shifobaxshlik xususiyatlariga asosan “Jen-shen” o‘simligiga tenglashtiriladi. Shirinmiya o‘simligi dorivor o‘simlik hisoblanishi bilan bir vaqtda ozuqabop, yem-xashak, bo‘yoqbo‘p , oshlovchi va tolali o‘simliklar sifatida qo‘llaniladi. Shuning uchun ham bu o‘simlikning turli ekologik hududlarda tarqalgan ekoforma va populyatsiyalarini ekologik-biologik xususiyatlarini o‘rganish va ularning xo‘jalik ahamiyatiga ega bo‘lgan belgilarni aniqlash, formasevtika sanoatida dorivor o‘simlik resurslariga bo‘lgan talabini qondirishda o‘ziga xos ahamiyatga egadir.

### **TADQIQOT METODLARI VA OLINGAN NATIJALAR**

Shirinmiya o‘simligini tabiiy sharoitda o‘rganishda qabul qilingan geobotanik va resursshunoslik metodlaridan foydalanildi. Har bir populyatsiyada o‘ntadan o‘simlik tanlab olinib, alohida morfologik belgilari aniqlaniladi, bu belgilarning madaniy holda ekilishi o‘rganilib, taqqoslash maqsadida urug‘ va qalamchalar olinadi, hamda maxsus geobotanik blankalarda shu o‘simlik jamoasi izohlanadi, dominant va subdominant o‘simliklar gerbariy qilinadi [1]

Har bir populyatsiyadagi shirinmiya o‘simligining zichligi zahiralari aniqlaniladi. O‘rganilayotgan o‘simlik gabatusi, poyasi, bargi, poyaning tuklanishi va antatsion bo‘yoqlari, to‘pgullar shakli, uzunligi undagi gullar soni va sifati kabi

belgilari o‘rganilib, taqqoslanadi, so‘ngida bu belgilarning o‘zgaruvchanligi yoki o‘zgarmaslik xususiyatlari o‘rganilib, tegishli xulosalar beriladi.[2]

Olingan natijalar shuni ko‘rsatdiki, o‘rganilayotgan o‘simliklarning morfo-biologik belgilari o‘simlik o‘sayotgan hududning tuproq tuproq tarkibiga, yer osti suvining yuza yoki chuqur joylashganligiga bog‘liq ekan.[3]

Bo‘stonliq tumanida turli ekologik sharoitlarda tarqalgan shirinmiya o‘simligi populyatsiyalarini o‘rganishdan maqsad ularning morfologik, ekologik va xo‘jalik ahamiyatiga egasi bo‘lgan belgilarini, o‘zgaruvchanlik xususiyatlarini aniqlashdan iboratdir.[2]

Shirinmiya o‘simligi dukkakdoshlar (burchoqdoshlar) - Fabaceae oilasining Glycyrrhiza turkumiga mansub turkum 1753 yili K.Linney tomonida aniqlangan bo‘lib, uni 3 ta turga ega ekanligi ko‘rsatiladi. *G.Glabra* L, *G. echinata* L, *G.hirsuta* L. Glycyrrhiza turkumining barcha turlari Buass‘ya (Boisser, 1872) tomonidan 2 ta seksiyaga: *Eugycyrrhiza* Bois va *Meristotropis* Bois. Keyinchalik esa Engler (Engler, 1894) uchunchi seksiya sifatida *Glycyhizopsis* Boiss.et Bal turkumini qo‘shgan.[1]

Glycyrrhiza turkumi sistematikasi bo‘yicha uzoq yillar ilmiy izlanishlar olib borgan E.A.Krughanova (1955) Buass‘e tomonidan ajratilgan *Meristotropis* va *Glycyhizopsis* turkumini mustaqil turkum sifatida ajratadi. *Eugycyrrhiza* seksiyasini ikkita: *Eugycyrrhiza* va *Pseudoglycyrrhiza* Krug. Seksiyalariga bo‘ladi.[2]

E.A. Krughanova Glycyrrhiza turkumining 13 turidan 5 tasini (glitserizin kislota saqllovchi) *Eugycyrrhiza* seksiyasiga va qolgan 8 turni esa (glitserizin kislotasiga ega bo‘lmagan) *Pseudoglycyrrhiza* seksiyasiga kiritgan.[3]

Biz o‘rganayotgan shirinmiya (*G.Glabra*) turi *Eugycyrrhiza* seksiyasga mansub. Shirinmiya o‘simligi to‘qay o‘simligi bo‘lib, tog‘ mintaqasining 2000-2200 m balandligigacha bo‘lgan hududlarda ham uchraydi. Chirchiq daryosi suv havzasida olib borilgan kuzatishlar shuni ko‘rsatdiki, shirinmiya o‘simlik turi nihoyatda polimorf tur bo‘lib, bir-biridan keskin farq qiladigan populyatsiyalarga ega.[1]

Bu populyatsiyalar o‘simliklarning balandligi, shoxlanish tartibi, barglarining bo‘yi bilan enining nisbati, to‘pgullarining kalta-uzunligi, gullarining zichligi va katta-kichikligi, rangi kabi belgilari bilan farqlanishi aniqlandi.[3]

Dukkagining tuklanishi esa asosan tuproq namligiga bog‘liq bo‘lib, yer osti suvlari chuqurda joylashgan quruq janubiy qiyaliklarda kuchli tuklangan formalari aniqlandi.[1]

Bu belgilari nasldan-naslga berilishi yoki saqlanmaslik holatlarini aniqlash maqsadida har bir populyatsiyadan qalamchalar (ildizpoyasidan) olinib, O‘zRFA BIChM qoshidagi (Botanika bog‘i) tajriba maydoniga o‘tkazildi.[2]

Quyidagi jadvalda Ugam suv havzasida tarqalgan populyatsiyalarning o‘shish va rivojlanishiga oid ba’zi bir ma’lumotlar berilgan.

### POPULYATSIYALARNING O‘SISHI VA RIVOJLANISHI

Populyatsiya nomi	Vegetatsiya oxiridagi poya bo‘yi (sm)	Mevaga ega bo‘lgan o‘simlik (%)	To‘pgul uzunligi(sm)	
			Bandi	To‘pgul
Chirchiq	78	22	3,5	7
Konsoy	60	17	3	5
Keragilsoy	46	2	2,3	3

Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, ushbu hududda bir turga (G.glabra) mansub bo‘lgan populyatsiyalar bilan bir vaqtda G.glabra bilan G.uralensis kabi ikki tur o‘rtasidagi gibril formalar ham mavjudligi aniqlanildi. Ural miya O‘z R florasida berilmagan, lekin arealining eng chetki (g‘arbiy) chegarasi O‘zR janubiy-sharqiy qismdan o‘tadi [1].

Izlanishlar natijasida topilgan bu gibril yoki G.uralensis turi dengiz sathidan 1000-1200 m balandlikda, faqatgina ma’lum bir joyda ( maydoni-0.6-1 ga yaqin) o‘shishi aniqlandi. Janubiy-sharqiy qiyaligida joylashgan bu bir tur miya - taktak

assotsiyatsiyasida dominantlik qiladi. Qiziqarli joyi shundaki, bu o‘simlik ko‘p belgilari jihatdan Qozog‘iston, Qirg‘iziston hududida keng tarqalgan ural miyasiga mos keladi. To‘pguli, gulining kattaligi, gulbandda zich joylashganligi va boshqalar, yaxshi gullaydi, ammo meva tugish darajasi o‘ta past. Bu hol ko‘p yillik kuzatishlar natijasida aniqlandi. Ehtimol bu hol tur arealining eng chekka qismida o‘shishi bilan bog‘liq bo‘lishi ham mumkin. Asosan vegetativ yo‘l bilan ko‘payishi kuzatiladi, bu esa barcha miya turkum vakillariga xos belgi.[3]

Keyingi yillarda bizlar kuzatish olib borayotgan qirliklar mahalliy xalqlar tomonidan o‘z boshimchalik bilan o‘rab olinib, pichan tayyorlash maydonlariga aylantirilmoqda. Bu esa hududdagi ba‘zibir noyob o‘simliklarni kamayib ketishiga olib kelishi mumkin.[2]

## XULOSA

Xalq xo‘jaligining turli sohalarida keng qo‘llaniladigan, eksport mahsuloti hisoblangan xom-ashyo o‘simliklarini o‘rganish va ulardan oqilona foydalanish bugungi kunimizning dolzarb masalalaridan biridir. Shunday xom-ashyo o‘simliklardan biri hisoblangan shirinmiya o‘simligiga (*Glycyrriza gloabra f*) bo‘lgan talab meditsina, oziq-ovqat, tog‘-metallurgiya, kimyo, farmasevtika kabi sanoatlarda va tashqi bozorda talab yildan-yilga ortib bormoqda [2].

Keyingi yillarda inson faoliyati natijasida, o‘simliklarni reja asosida ishlatmaslik hisobiga ba‘zibir xom-ashyo o‘simliklari O‘zR “Qizil kitob”iga kiritilishiga yoki butunlay yo‘qolib qolishiga sabab bo‘lmoqda [1].

Biz o‘rganayotgan shirinmiya o‘simligi tog‘li hududlarda farmasevtika sanoati uchun tayyorlanmaydi, chunki bu yerlarda ildiz yer ostiga chuqur ketgan, hamda bu hududlarda ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo‘lgan maydonlar mavjud emas, lekin mahalliy aholi tartibsiz ravishda giyohlar tayyorlab sotmoqda.[1]

Tabiatni muhofaza qiluvchi tashkilotlar, o‘rmon xo‘jaligi xodimlari yashil boyliklarimizni himoya qilishga, ulardan oqilona foydalanisga alohida e‘tibor berishlari lozim.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Prator U.P. O krasnoy kniga Respublika Uzbekistan. V sb. “Aktualniye problemi biologii, ekologii i pochvovedeniya” Respublika ilmiy-amaliy Anjumani. Toshkent, 2006.
2. Tashmuhamedov R.I. Resursi nekotorig poleznix rasteniy yuga Uzbekistana. Xalqaro ilmiy-amaliy konf. materiallari. Andijon, 2007.
3. Yuldashev A. S. K primeneniyu senopopulyatsionnogo podxodo pri izuchenii lekarstvennix rasteniy. Xalqaro ilmiy-amaliy konf. materiallari. Andijon 2007.